

## ASQAR MAHKAM LIRIKASIDA AYOL OBRAZI

**Qudratova Muborak Shuxratovna**

*BuxDU Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** *Asqar Mahkam she'riyatida mavzu rang-barangligi xalq dardi bilan mushtaraklik, millat mintalitetidagi illatlardan nadomat va kamolotidan quvonch, tarixning buyuk shaxslarini ibrat o'laroq anglash, o'z yaqinlariga mehru muhabbat, insoniy tuyg'ular tarannumi kabilardan kelib chiqadi. Ushbu maqolamizda shoir ijodidagi ayollar obraziga to'xtalamiz.*

**Kalit so'zlar:** *davr va ijtimoiy tuzum, ayol qismati, bevaqt to'lgan oy, ruhiy muvozanat, paxta ishi, o'zbek ishi.*

**Аннотация:** *В поэзии Аскара Махкама многообразие тем обусловлено разделением народной боли, раскаянием в пороках менталитета нации и радостью от его совершенства, пониманием великих деятелей истории как примеров, любовью к своим близким, воспеванием человеческого чувства. В этой статье мы остановимся на образе женщины в творчестве поэта.*

**Ключевые слова:** *эпоха и общественный строй, судьба женщины, преждевременное полнолуние, душевное равновесие, хлопчатобумажная работа, узбекский труд.*

**Annotation:** *In Askar Mahkam's poetry, the variety of themes comes from sharing the people's pain, repentance from the vices of the nation's mentality and joy from its perfection, understanding the great figures of history as examples, love for one's loved ones, singing of human feelings. In this article, we will focus on the image of women in the work of the poet.*

**Key words:** *era and social system, woman's fate, premature full moon, mental balance, cotton work, Uzbek work.*

Asqar Mahkam ijodidagi ajralib turuvchi "ayol" obrazi ko'klarga ko'tarilmaydi, poyiga gullar to'shalmaydi, yolg'on va'dalar berilmaydi, go'zallik tarannum etilmaydi. Ayol obrazi misolida ayolning jamiyatdagi o'rni, qadr-qimmatini davr va ijtimoiy tuzum bilan bog'lab ta'rif beradi. Bu mavzudagi she'rlarda ayol qismatiga achinish ruhi ustun turadi.

Nechun bevaqt to'lding, ey, Oy

O'n to'rt kunning ichida?

Xuni biyron bo'lding ey, Oy

O'n to'rt kunning ichida?<sup>8</sup>

Shoir she'rlarida "oy" obraziga ba'zan turli ramziy ma'nolarda, ba'zan o'z ma'nosida tez-tez duch kelishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan "Ey, oy" she'rida ham "oy" ayolga nisbatan ramziy ma'no ifodalaydi. Ushbu she'rda ayollarining qismati o'n to'rt kunlik oyga qiyoslanadi. "Bevaqt to'lgan oy" deya ayolning turli sabablar bilan erta xazon

<sup>8</sup> Асқар Махкам. Ҳақ. – Душанбе, «Адиб», 1998. – 127-б.

bo'layotgan umriga ishora qilinadi. "Xunibiyron" so'zining lug'aviy ma'nosi – "qizdirilgan", "qovurilgan" ma'nolarini anglatadi. 80-yilning fojialari shundog'am siyosiy zulmda qovurilayotgan, xunibiyron bo'lgan ya'ni alam va iztiroblar jonidan-da o'tgan ayollar ruhiy muvozanatini izdan chiqaradi. Shoirning, navbatdagi "Eng chuqur go'rlar" she'ri ham shu ruhda yozilgan.

"Xotinlar tumorni quchib yig'ladi,  
Xotinlar beshikni quchib yig'ladi,  
Xotinlar devorni quchib yig'ladi,  
Xotinlar eshikni quchib yig'ladi..."<sup>9</sup>

Mazkur bandda shoir ifodalamoqchi bo'lgan holat tasviri yanada oydinlashadi. Sho'ro davrida ayollarga nisbatan shafqatsiz munosabat, ayollar haq-huquqining poymol bo'lishi, qadrsizlash, ishchi kuchi sifatida ayollar mehnatidan ayovsiz foydalanish, zo'ravonlik, jabr-zulm 80-yillarning boshiga kelib haddan oshadi. "Paxta ishi", "O'zbek ishi" kabi soxta ayblovlar va boshqa sabablar bilan qatag'on siyosati uyushtiriladi, minglab er-yigitlar vatanidan ayriladi, oilalar boquvchisini yo'qotadi, farzandlar otasidan judo bo'ladi. "Paxta ishi", "O'zbek ishi"ning ikkinchi bosqichida 40 ming kishi (ba'zi manbalarda 48000) tergov qilinib, 5 ming nafar yigit va erkaklar oilasi bag'ridan yulib ketilib, jinoiy javobgarlikka tortildi va turli muddatlarda ozodlikdan mahrum etildi. Bu siyosat o'zbek ayollarining sabr-kosasini to'ldiradi, norozilik kayfiyatini uyg'otadi. Oqibatda O'zbekistonning turli yerlarida yaqinlaridan, jigarbandlaridan ayrilgan yuzlab ayollar joniga qasd qildi. Bu haqda shoir "Odam" she'rida u orzu qilgan, ayollar qadr topadigan davrlar kelishini ichki bir dard, og'riq, o'kinch bilan tilga oladi.

"Ayollar gulxanda yoqmas o'zlarin,  
To'z-to'zon sochlarin ko'kka sovurib..."<sup>10</sup>

Sho'ro zamonida ayollarga bo'lgan munosabat, ayollar qadrsizligining guvohi bo'lgan Asqar Mahkam ayol zotiga chin yurakdan achinadi, bolaligidanoq ularning achchiq qismatini zahmatkash buvisi Nigorbibi, farrosh opasi Latofat, sho'r ko'z yoshi tinmagan Ohista xola va boshqa qishloq ayollari misolida ko'rgan edi. Hayotdagi xarakterli voqea va hodisalar, ijtimoiy ziddiyat va illatlar ijodkorni ruhan bezovta qilishi tabiiy.. u hayotdagi eng muhim dramatik hodisalarni tasvirlash va dolzarb muammolarni so'zda in'ikos ettirar ekan, avvalo, bu hollarni ko'ngil manzaralarida chizadi, ijtimoiy mohiyatni sezimlar chigalligi va iztiroblarda berishga harakat qiladi. Bu tasvir usuli she'riyatning azaliy qonuniyatlaridan biri bo'lib, hayotiy tafsilotlar lirik kechinma orqali namoyon bo'ladi. Shoirning lirik "men"i ijtimoiy "men"ga, qolaversa, umuminsoniy "men"ga aylanadi.

Asqar Mahkamning ijodida "ayol" siymosi turli rakurslarda: birida jafokash, mehnatkash buvi, birisida sho'ro zulmidan ezilgan ayol, birisida adashgan ayol sifatida gavalantiriladi. Quyidagi "Bir ayolning yetti ta'rifi" va she'rida "yengil hayotni tanlagan ayol" obraziga yetti xil ta'rif keltiradi.

"Sen – yomg'ir suvida hosil bo'lgan xubob –  
xuboblarga chirmashursan..."

<sup>9</sup> Asqar Mahkam. Xaq. – Душанбе, «Адиб», 1998. – 126-б.

<sup>10</sup> Asqar Mahkam. Xaq. – Душанбе, «Адиб», 1998. – 135-б.

ular lahza o‘tmay yoriladir...  
sen – achchiq sovuqlarda  
bug‘otda osilib turgan muz parasi...  
Hali zamon oqib ado bo‘lasan...”

Shoir ayol sha‘niga yolg‘on maqtoqlar yog‘dirmaydi, ayolga baxt timsoli deya qaramaydi. Ayolga qarata “*Sen – yomg‘ir suvida hosil bo‘lgan xubob*”, “*achchiq sovuqlarda bug‘otda osilib turgan muz parasi...*” deya tashbih qilganda, ayol tanlagan yengil-yelpi hayot nazarda tutiladi. U tanlagan qismat, u tanlagan yo‘l qisqa, so‘nggi ayanchli ekanini aytadi. Sen ham sen kabi xato qilganlar kabi, kutganingdan ham tezroq xubob singari yorilib yoki muz parchalari singari oqib oyoq ostidagi ko‘lmakka aylanasan deya ogohlantiradi.

“Sen – eng so‘nggi yulduz  
hali zamon osmon  
bu nurli yuzingga  
bu dunyoning bor chirkinlarini  
itqitib tashlaydi...”

She‘r davomida shoirning ayolga noroziligi oshib borib ayovsiz o‘rinli ayblovlarga, ayovsiz qoralashga aylanadi.

“Sen – Shoh qizi...”  
“gado muhabbatini nazarga ilmagan...  
Darvesh huv-huvlaridan kulgan...  
Qalandar xirqasiga o‘kcha artgan...”  
“shoir ingroqlariga tuflagan...”  
“nomuslar ustidan yurgan...”  
“qalamni burda-burda aylab  
Siyohni ahlatga to‘kkan jodugar malika!...”<sup>11</sup>

Jirkanch, sharmandali qilmishlarini yuziga soladi, ijirg‘anadi, nomus qiladi va so‘ngida “*qalamni burda-burda aylab siyohni ahlatga to‘kkan jodugar malika!...*” deya qahr-g‘azab aralash baralla hayqiradi. Bu hayqirik shoirning yurak-yuragidan otilib chiqqan alam, balki ko‘z-yoshlari, balki poymol bo‘lgan nomusi yanglig‘ eshitiladi. “Zanjir edi bu ayol – jodu...” she‘rida ham shoir ayol zotiga hayrat bilan boqadi. Uning “*Tirnog‘idan sochiga qadar halokatli ishq*” ekanini, afsus va nadomat ohangda ta‘kidlaydi.

“*Tirnog‘idan sochiga qadar  
halokatli Ishq edi go‘yo...*”<sup>12</sup>

<sup>11</sup> Асқар Маҳкам. Аналҳақ. – Тошкент, Халқ мероси, 2003. – 72-73-б.

<sup>12</sup> Асқар Маҳкам.. Ваҳдат куйи. – Тошкент. Nurafshon business. 2001. – 178-б

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Асқар Маҳкам. Ҳақ. – Душанбе, «Адиб», 1998. – 127-б.
2. Shuhratovna Q. M. The World of Themes of Sirojiddin Sayyid's Poems.
3. Кудратова М. Ш. ОЛИМ ШАРАФИДДИНОВ-УЧЕНЬИ НАВАИВЕД //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЮРКОЛОГИИ: РОССИЯ И ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР. – 2021. – С. 241-243.
4. Quدراتова М. A DEVELOPMENT OF NAVOI STUDIES //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
5. Shuxratovna Q. M. ASQAR MANKAM SHE'RIYATIDA ISHQ TALQINI //The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 25-28.
6. Quدراتова М. S. HOZIRGI ZAMON OZBEK SHERIYATIDA ASKAR MANKAM IJODI //Zamonaviy fan va ta'lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 206-210.